

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 177 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	



AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Siroj Zarina Rustambekovna

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti doktranti (DSc)

Zarina36.84@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida tug'ilish, o'lim, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, migratsiya va aholi tarkibidagi o'zgarishlarni ifodalovchi asosiy statistik ko'rsatkichlarning mazmuni, tasnifi hamda ularni hisoblash va talqin etish xususiyatlari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi demografik ma'lumotlari asosida hududiy va dinamik tahlillar amalga oshirilib, demografik ko'rsatkichlar tizimining aholi takror barpo bo'lish jarayonlarini baholashdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari demografik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, hududiy demografik tafovutlarni aniqlash va ilmiy asoslangan demografik siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aholi demografiyasi, demografik ko'rsatkichlar tizimi, tug'ilish, o'lim koeffitsiyenti, umr davomiyligi, migratsiya, statistik tahlil, hududiy tafovutlar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, methodological, and practical aspects of the system of statistical indicators describing population demographic processes. The study examines the content, classification, and calculation features of key demographic indicators reflecting fertility, mortality, life expectancy at birth, migration, and changes in population structure. Based on recent statistical data from the Republic of Uzbekistan, dynamic and regional analyses are conducted to assess the role of demographic indicators in analyzing population reproduction processes. The findings contribute to improving demographic statistics, identifying regional demographic disparities, and supporting the development of evidence-based demographic policies.

Key words: population demography, system of demographic indicators, fertility, mortality rate, life expectancy, migration, statistical analysis, regional disparities.

Аннотация. В статье комплексно исследуются теоретические, методологические и практические аспекты системы статистических показателей, характеризующих демографические процессы населения. Рассмотрены содержание, классификация и особенности расчёта основных демографических показателей, отражающих рождаемость, смертность, ожидаемую продолжительность жизни при рождении, миграцию и изменения в структуре населения. На основе статистических данных Республики Узбекистан за последние годы проведён динамический и региональный анализ, позволяющий оценить роль системы демографических показателей в изучении процессов воспроизводства населения. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования демографической статистики, выявления региональных демографических различий и формирования научно обоснованной демографической политики.

Ключевые слова: демография населения, система демографических показателей, рождаемость, коэффициент смертности, ожидаемая продолжительность жизни, миграция, статистический анализ, региональные различия.

KIRISH

Aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi demografik holatni baholash, aholi takror barpo bo'lish jarayonlarini tahlil qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda demografik jarayonlar, jumladan tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrim, migratsiya, urbanizatsiya hamda aholi tarkibining yosh va jins bo'yicha o'zgarishi tobora murakkablashib borayotgani ularni to'g'ri va aniq statistik o'lchashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, demografik jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularni to'g'ri qo'llash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Demografik statistikaning asosiy vazifasi aholi harakati va tarkibidagi o'zgarishlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholashdan iborat bo'lib, bunda ko'rsatkichlar tizimi markaziy o'rin egallaydi. Statistik ko'rsatkichlar orqali demografik jarayonlarning intensivligi, yo'nalishi va hududiy farqlari aniqlanadi, shuningdek, vaqt o'tishi bilan yuz berayotgan tendensiyalar ochib beriladi. Shu bois demografik ko'rsatkichlar tizimi nafaqat axborot manbai, balki demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va prognozlash uchun zarur bo'lgan ilmiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda global va milliy miqyosda aholi soni va tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida aholi sonining barqaror o'sishi, yosh aholi ulushining yuqoriligi va hududlar bo'yicha demografik jarayonlarning notekis rivojlanishi demografik ko'rsatkichlardan samarali foydalanishni talab etadi. Bunday sharoitda umumiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, yoshga xos, hududiy va strukturaviy indikatorlarni qo'llash demografik jarayonlarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi demografiya va statistika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan demografik ko'rsatkichlarning tasnifi, ularni hisoblash metodikasi, taqqoslanishi va amaliy tahlildagi qo'llanilishiga bag'ishlangan. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar mazkur masalalarni turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida yoritadi.

R.Pressat demografik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratib, ularni aholi harakati va tarkibini tavsiflovchi asosiy statistik vosita sifatida talqin etadi. Muallif tug'ilish, o'lim va migratsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarni umumiy, maxsus va yoshga xos guruhlarga ajratib, ularning ilmiy ahamiyatini asoslab beradi[1].

J.N.Keyfitz demografik ko'rsatkichlarni matematik-statistik yondashuv asosida tahlil qilib, aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni baholashda nisbiy ko'rsatkichlarning ustunligini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida demografik ko'rsatkichlar tizimi prognozlash va demografik siyosatni rejalashtirishning muhim instrumenti sifatida qaraladi[2].

H.Shryock, J.Siegel va E.Stockwell tomonidan yaratilgan fundamental asarda demografik statistikaning metodologik asoslari batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotda demografik ko'rsatkichlarning hisoblash texnikasi, standartlashtirish usullari va xalqaro taqqoslash masalalari keng tahlil qilingan bo'lib, u hozirgi kunda ham ilmiy manba sifatida ahamiyatini yo'qotmagan[3].

UN DESA (United Nations Department of Economic and Social Affairs) tomonidan ishlab chiqilgan metodologik qo'llanmalarda demografik ko'rsatkichlarning xalqaro tasnifi, ularni hisoblash va e'lon qilish bo'yicha yagona standartlar belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar milliy statistika tizimlarida demografik ko'rsatkichlar uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[4].

OECD tadqiqotlarida demografik ko'rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari bilan integratsiyalangan holda tahlil qilinadi. Bu yondashuv demografik ko'rsatkichlar tizimini faqat aholi statistikasi doirasida emas, balki kengroq iqtisodiy va ijtimoiy tahlil kontekstida qo'llash imkonini beradi[5].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda demografik ko'rsatkichlar tizimi O'zbekistonning milliy statistik amaliyoti bilan bog'liq holda yoritilgan. Jumladan, S.S.G'ulomov o'z tadqiqotlarida demografik ko'rsatkichlarni aholi takror barpo bo'lish jarayonlarini baholashda asosiy vosita sifatida ko'rib chiqadi va ularning iqtisodiy rejalashtirishdagi rolini asoslab beradi[6].

Shuningdek, B. Yo'ldoshev demografik statistika bo'yicha ilmiy ishlarida tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining hisoblash metodikasiga alohida e'tibor qaratib, ularni hududiy va vaqt kesimida tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif demografik ko'rsatkichlar tizimining amaliy ahamiyatini statistik boshqaruv bilan bog'laydi[7].

Bundan tashqari, M.M.Karimovning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston sharoitida demografik ko'rsatkichlarni xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari yoritilgan. U demografik indikatorlar tizimini takomillashtirish orqali statistik tahlilning aniqligi va ishonchliligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi[8].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi demografik tahlilning markaziy elementi bo'lib, ularni to'g'ri



tanlash, hisoblash va talqin etish ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu ilmiy qarashlar mazkur maqolaning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini o'rganish rasmiy ochiq statistik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN DESA) hamda xalqaro statistik to'plamlarda e'lon qilingan demografik ma'lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, guruhlash, qiyosiy tahlil va dinamik qatorlar usullaridan foydalaniladi. Demografik jarayonlarni baholashda aholi soni, tug'ilish, o'lim va migratsiyani ifodalovchi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar tizimi qo'llanildi. Hududlar va davrlar kesimida taqqoslash imkonini ta'minlash maqsadida yosh-jins tarkibi bo'yicha standartlashtirish usullaridan foydalaniladi.

Shuningdek, demografik ko'rsatkichlar tizimining amaliy ahamiyatini baholashda strukturaviy va hududiy tahlil, demografik jarayonlarning istiqboldagi rivojlanishini aniqlashda esa soddalashtirilgan prognoz elementlari qo'llaniladi. Olingan natijalar ilmiy talqin qilinib, demografik jarayonlarni boshqarishda statistik ko'rsatkichlar tizimining ahamiyati asoslab beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu sohada yondashuvlar mazmunan chuqurlashib, metodik jihatdan murakkablashib bormoqda. Jahon tajribasida demografik jarayonlarni baholash endilikda faqat klassik ko'rsatkichlar (tug'ilish va o'lim darajasi) bilan cheklanmay, balki aholi tarkibining sifati, hududiy notekisliklar va uzoq muddatli demografik barqarorlikni ifodalovchi indikatorlar tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa statistik ko'rsatkichlar tizimining qayta ko'rib chiqilishi va kengaytirilishini taqozo etmoqda.

Jahon miqyosida asosiy tendensiyalardan biri demografik ko'rsatkichlarni integrallashgan holda qo'llashdir. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda demografik jarayonlarni baholashda alohida ko'rsatkichlar emas, balki ularning majmuasi (masalan, umumiy tug'ilish koeffitsiyenti, o'rtacha umr davomiyligi, qarilik yuklamasi va migratsiya balansi) orqali aholining uzoq muddatli demografik holati tahlil qilinmoqda. Statistik jihatdan bu yondashuv demografik xavflarni oldindan aniqlash va ijtimoiy siyosatni moslashtirish imkonini bermoqda.

Yana bir muhim global tendensiya - demografik ko'rsatkichlarning hududiy aniqligini oshirishdir. Jahon statistika amaliyotida milliy o'rtacha ko'rsatkichlar bilan bir qatorda mintaqaviy va hatto mahalliy darajadagi indikatorlardan foydalanish kengaymoqda. Bu jarayon urbanizatsiya, ichki migratsiya va hududlararo rivojlanish tafovutlari kuchayib borayotgan sharoitda demografik ko'rsatkichlar tizimining amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Natijada statistik tahlilda guruhlash, indekslash va standartlashtirish usullarining roli sezilarli darajada kuchaymoqda.

Demografik ko'rsatkichlar tizimi rivojida yana bir muhim yo'nalish - sifat ko'rsatkichlariga e'tiborning ortishidir. Jahon tajribasida aholi sonining o'sishi emas, balki umr davomiyligi, sog'lom yashash yillari, ta'lim darajasi bilan bog'liq demografik indikatorlar keng qo'llanilmoqda. Bu holat demografik statistikaning ijtimoiy statistika bilan uzviy integratsiyalashuviga olib kelmoqda va statistik ko'rsatkichlar tizimining mazmunini sezilarli darajada boyitmoqda (1-jadval).

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, yosh (jami)¹

Hududlar	yillar					
	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	75,1	73,4	73,8	74,3	74,7	75,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	74	72,5	73,5	72,9	72,7	73
Andijon viloyati	74,2	73,3	73,3	74,5	74,7	73,7
Buxoro viloyati	76,5	74	75,4	75,9	76,8	76,3
Jizzax viloyati	78	74,4	75,1	74,2	74,5	76
Qashqadaryo viloyati	75,6	74,4	73,9	72,6	73,3	74,4
Navoiy viloyati	75,5	73,7	74,4	76,8	76,1	75,8

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

Namangan viloyati	74,7	73,4	73,9	74,4	74,5	74,6
Samarqand viloyati	75,2	73,4	73,6	73,7	74	74,8
Surxondaryo viloyati	75	73,3	72,9	72,2	72,8	74
Sirdaryo viloyati	71,9	72,1	72	71,8	71,7	72,2
Toshkent viloyati	74,7	72,4	72,7	75,5	75,4	75,1
Farg'ona viloyati	75,6	74,5	74,8	75,4	75,7	76,6
Xorazm viloyati	73,5	72,2	72,7	73,2	74,3	74,6

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi eng muhim integral statistik ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u aholining sog'liq holati, yashash sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda tibbiy xizmatlar samaradorligini kompleks tarzda aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkichning yillar va hududlar kesimidagi o'zgarishini tahlil qilish demografik jarayonlarni chuqur statistik baholash imkonini beradi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2019-yilda 75,1 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2020–2021-yillarda ushbu ko'rsatkichning pasayishi kuzatilgan. Mazkur holat global miqyosda yuzaga kelgan epidemiologik omillar bilan izohlanib, demografik ko'rsatkichlarning tashqi omillarga sezgirligini ko'rsatadi. 2022–2024-yillarda esa umr davomiyligining bosqichma-bosqich tiklanib, 2024-yilda yana 75,1 yosh darajasiga yetgani demografik barqarorlikning qayta tiklanayotganidan dalolat beradi.

Hududiy kesimdagi tahlil shuni ko'rsatadiki, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi viloyatlar bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi, bu esa demografik jarayonlarni ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimida hududiy yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida umr davomiyligi ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lib, 2024-yilda Farg'ona viloyatida 76,6 yoshga yetgan. Bu hududlarda sog'liqni saqlash infratuzilmasi, aholi bandligi va ijtimoiy sharoitlarning nisbatan yaxshiroq rivojlanganini ko'rsatadi.

Ayni paytda Sirdaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida umr davomiyligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan pastroq darajada shakllanmoqda. Statistik nuqtayi nazardan, bu holat demografik ko'rsatkichlarni baholashda faqat o'rtacha respublika darajasi bilan cheklanib qolmasdan, hududlar bo'yicha differensial tahlil o'tkazish zarurligini asoslaydi. Mazkur tafovutlar ekologik holat, daromadlar darajasi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.


Shuningdek, jadvaldan ko'rinadiki, ayrim hududlarda yillar davomida umr davomiyligining keskin tebranishi kuzatiladi. Bu esa demografik ko'rsatkichlar tizimida dinamik qatorlar tahlili va trendlarni ajratish usullarining muhimligini ko'rsatadi. Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi kabi integral ko'rsatkichlar demografik jarayonlarni uzoq muddatli istiqbolda baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi va demografik prognozlar tuzishda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda demografik jarayonlarni ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish amaliy boshqaruv ehtiyojlari bilan tobora yaqinlashib bormoqda. Mamlakatda aholi sonining o'sishi, yosh tarkibining ustunligi va hududlar bo'yicha demografik dinamikadagi farqlar demografik ko'rsatkichlarni chuqurroq va differensial tahlil qilish zaruratini kuchaytirdi. Natijada statistik amaliyotda yoshga xos, hududiy va strukturaviy ko'rsatkichlarga bo'lgan talab ortmoqda.

Mamlakatda demografik ko'rsatkichlar tizimining rivojlanishidagi muhim tendensiya rasmiy statistik ma'lumotlar ochiqligining kengayishi va ularning muntazam yangilanib borishidir. Bu holat demografik jarayonlarni yillar kesimida tahlil qilish, qisqa muddatli tendensiyalarni aniqlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni statistik asoslash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mavjud ma'lumotlar asosida tuzilayotgan ko'rsatkichlar tizimi hududlar kesimida solishtirma tahlil o'tkazish uchun yetarli ilmiy asos yaratmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, O'zbekistonda demografik ko'rsatkichlar tizimi hali ham asosan miqdoriy indikatorlarga tayangan holda shakllanmoqda. Bu esa aholi tarkibidagi sifat o'zgarishlarini to'liq aks ettirish imkonini cheklaydi. Shu sababli, xalqaro tajribaga tayangan holda umr davomiyligi, demografik yuklama, urbanizatsiya darajasi va migratsiya intensivligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlil doirasini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi nafaqat demografik holatni tavsiflash, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon va milliy tajriba ushbu ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, ularni hududiy va strukturaviy jihatdan chuqurlashtirish hamda boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, demografik ko'rsatkichlar tizimi asosida olib borilgan statistik tahlillar mamlakatda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'lim koeffitsiyenti, promille (jami)

O'lim koeffitsiyenti aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi asosiy nisbiy statistik ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u ma'lum davrda aholining har ming nafariga to'g'ri keladigan vafot etganlar sonini aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkich aholining sog'liq holati, ijtimoiy sharoitlari, tibbiy xizmatlar sifati hamda demografik tarkib xususiyatlarini kompleks tarzda ifodalovchi indikator sifatida statistik ko'rsatkichlar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Grafik ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy o'lim koeffitsiyenti 2019-yilda 4,6 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2020–2021-yillarda ushbu ko'rsatkichning oshishi kuzatilgan. Bu holat global miqyosda yuzaga kelgan sog'liqni saqlash bilan bog'liq favqulodda sharoitlar ta'siri ostida o'lim darajasining vaqtinchalik ko'tarilganini aks ettiradi. Keyingi yillarda, xususan 2022–2024-yillarda, o'lim koeffitsiyentining nisbatan pasayishi va barqarorlashuvi demografik jarayonlarning tiklanish bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi.

Hududiy kesimdagi tahlil o'lim koeffitsiyentining viloyatlar bo'yicha notekis shakllanganini ko'rsatadi. Jumladan, Toshkent viloyatida barcha yillarda o'lim koeffitsiyenti respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lib, bu hududda aholining yosh tarkibida katta yoshdagilar ulushining nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Statistik jihatdan bu holat o'lim koeffitsiyentini baholashda aholi yosh tarkibini hisobga olgan holda standartlashtirilgan ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Ayni paytda Qashqadaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida o'lim koeffitsiyenti nisbatan past darajada shakllangan bo'lib, bu hududlarda yosh aholi ulushining yuqoriligi va demografik yuklamaning o'ziga xos tuzilmasi bilan bog'liq. Demografik statistika nuqtayi nazaridan, bunday hududlarda o'lim koeffitsiyentining pastligi sog'liqni saqlash tizimi samaradorligidan tashqari, yosh strukturaning ta'sirini ham aks ettiradi.

Shuningdek, jadvaldan ko'rinadiki, ayrim hududlarda o'lim koeffitsiyenti yillar davomida tebranib turadi. Bu holat demografik jarayonlarni tahlil qilishda dinamik qatorlar tahlili, trendlarni aniqlash va qisqa muddatli tasodifiy omillarni uzoq muddatli tendensiyalardan ajratish zarurligini ko'rsatadi. O'lim koeffitsiyenti kabi nisbiy ko'rsatkichlar aholi soni o'sish sur'atlarini va tabiiy o'sish darajasini aniqlashda muhim statistik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur grafik asosida o'lim koeffitsiyenti statistik ko'rsatkichlar tizimida tug'ilish va umr davomiyligi ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinishi lozimligi ham tasdiqlanadi. Xususan, o'lim koeffitsiyentining pasayishi bilan tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligining oshishi o'rtasida statistik bog'liqlik mavjud bo'lib, bu demografik jarayonlarning kompleks xarakterini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, taqdim etilgan jadval o'lim koeffitsiyenti ko'rsatkichining aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimida asosiy va ajralmas indikator ekanini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich hududiy demografik farqlarni aniqlash, sog'liqni saqlash siyosatini baholash hamda demografik rivojlanish istiqbollarini ilmiy asoslashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish jarayonida qator mavjud muammolar va cheklovlar aniqlanadi. Ushbu muammolar nafaqat demografik jarayonlarning to'liq va aniq aks ettirilishiga, balki ularning ilmiy tahlili va boshqaruv qarorlarida samarali qo'llanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, muhim muammolardan biri - demografik statistik ma'lumotlarning hududlar kesimida notekis sifatidir. Ayrim hududlarda tug'ilish va o'lim holatlarining o'z vaqtida va to'liq qayd etilmasligi statistik ko'rsatkichlarning aniqligini pasaytiradi. Bu holat, ayniqsa, qishloq hududlarida yoki migratsiya faolligi yuqori bo'lgan mintaqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada demografik ko'rsatkichlar real holatni to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Ikkinchi muhim muammo - o'rtacha demografik ko'rsatkichlarga haddan tashqari tayanishdir. Amaliy statistik tahlilda respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan foydalanish hududiy, yosh va jins tarkibidagi farqlarni "yashirib yuboradi". Bu esa demografik jarayonlarni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Shu bois statistik ko'rsatkichlar tizimida yoshga xos va standartlashtirilgan indikatorlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani muammo sifatida baholanadi.

Uchinchi muammo - demografik ko'rsatkichlarning sifat jihatlarini aks ettirishdagi cheklovlar bilan bog'liq. Amaldagi statistik tizimda asosan miqdoriy ko'rsatkichlar ustuvor bo'lib, umr sifati, sog'lom yashash davomiyligi, aholining salomatlik darajasi kabi sifat indikatorlari yetarlicha integratsiyalanmagan. Bu holat demografik jarayonlarning chuqur mohiyatini to'liq ochib berishga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, migratsiya jarayonlarini statistik hisobga olishdagi murakkabliklar ham muhim muammo hisoblanadi. Ichki va tashqi migratsiyaning vaqtinchalik va doimiy shakllarini aniq ajratib ko'rsatish qiyinligi demografik ko'rsatkichlar tizimida ayrim nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Migratsiya oqimlarining to'liq hisobga olinmasligi tug'ilish, o'lim va aholi soni bo'yicha ko'rsatkichlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim muammo - demografik ko'rsatkichlar tizimi bilan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligidir. Demografik jarayonlar bandlik, daromadlar, ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, amaliy tahlilda ushbu bog'liqlik ko'pincha cheklangan darajada yoritiladi. Bu esa demografik siyosatni kompleks baholash imkoniyatlarini kamaytiradi.

Bundan tashqari, demografik prognozlashda statistik noaniqliklar mavjud. Ko'rsatkichlarning qisqa muddatda keskin o'zgarishi, tashqi omillar ta'siri va ma'lumotlar bazasidagi tafovutlar prognoz natijalarining aniqligini pasaytirishi mumkin. Bu holat prognozlashda ehtiyotkorlik bilan yondashish va ssenariyli tahlil usullarini keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimidagi mavjud muammolar ma'lumotlar sifati, metodologik uyg'unlik va tahliliy yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish demografik statistikani takomillashtirish, ilmiy asoslangan tahlillarni kengaytirish va samarali demografik siyosatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimining nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, demografik jarayonlarni to'g'ri baholash va ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash ko'p jihatdan qo'llanilayotgan statistik ko'rsatkichlar tizimining to'liqligi, aniqligi va taqqoslanuvchanligiga bog'liqdir. Tug'ilish, o'lim, umr davomiyligi, migratsiya va aholi tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar demografik holatni kompleks baholash imkonini beruvchi asosiy indikatorlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda demografik jarayonlarni aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar tizimi izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, u asosan miqdoriy ko'rsatkichlarga tayangan holda shakllanmoqda. Hududlar bo'yicha demografik ko'rsatkichlarning sezilarli farqlanishi, o'lim va umr davomiyligi indikatorlarining yosh tarkibiga yuqori darajada bog'liqligi demografik jarayonlarni baholashda standartlashtirilgan va yoshga xos ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, demografik ko'rsatkichlarning vaqt davomida tebranishi ularni dinamik va prognoz tahlillari bilan uyg'unlashtirish muhimligini tasdiqlaydi.

Maqolada aniqlangan muammolar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Demografik statistika tizimida yosh-jins tarkibini hisobga oluvchi standartlashtirilgan ko'rsatkichlardan foydalanishni kengaytirish hamda hududiy tahlillar ulushini oshirish lozim.
2. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini baholashda miqdoriy indikatorlar bilan bir qatorda umr sifati, sog'lom yashash davomiyligi kabi sifat ko'rsatkichlarini statistik tahlil tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish zarur.
3. Migratsiya jarayonlarini statistik hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirib, ichki va tashqi migratsiya oqimlarini demografik ko'rsatkichlar tizimi bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.
4. Demografik ko'rsatkichlar asosida tuziladigan prognozlarda ssenariyli yondashuvni keng qo'llash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.



Xulosa qilib aytganda, aholi demografik jarayonlarini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish demografik holatni chuqur tahlil qilish, hududiy rivojlanish strategiyalarini ilmiy asoslash hamda samarali demografik siyosatni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar kelgusida demografik statistikaning nazariy va amaliy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keyfitz, N. (1977). Introduction to the mathematics of population. Reading, MA: Addison-Wesley.
2. Pressat, R. (1985). Demographic analysis: Methods, results, applications. Chicago, IL: Aldine Publishing Company.
3. Shryock, H. S., Siegel, J. S., & Stockwell, E. G. (1976). The methods and materials of demography. New York, NY: Academic Press.
4. United Nations, Department of Economic and Social Affairs. (2019). Methods for population estimates and projections. New York, NY: United Nations.
5. OECD. (2020). Society at a glance 2020: OECD social indicators. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/soc_glance-2020-en
6. G'ulomov, S.S. (2018). Demografiya va aholi statistikasi. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. Yo'ldoshev, B. (2019). Statistika nazariyasi va demografik ko'rsatkichlar tahlili. Toshkent: Fan.
8. Karimov, M.M. (2021). O'zbekistonda demografik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish masalalari. Statistika va iqtisodiyot, 2, 34–41.
9. www.stat.uz
10. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100